

Fransiyaning O'rta Osiyo tadqiqotlari instituti bilan hamkorlik rivojlantiriladi

Joriy yilning 11-mart kuni O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti B.Abduxalimov IFEAC (Fransiyaning O'rta Osiyo tadqiqotlari instituti) bosh direktori A.Fov bilan uchrashdi. Uchrashuvda San'atshunoslik instituti direktori Sh.Pidayev, Tarix instituti direktor o'rinosi Sh.Maxmudov, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori J.Ismailovalar qatnashdilar.



Uchrashuv davomida IFEAC bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasi bilan kelgusidagi hamkorlik aloqalarini tiklash va ikki tomonlama manfaatli Memorandum imzolash masalasi muhokama qilindi.

A.Fov tomonidan IFEACning hozirgi kundagi faoliyati, amalga oshirilayotgan loyihalar va rejlashtirilayotgan tadbirlar to'g'risida ma'lumot berdi.

Ma'lumot o'rniida: Fransiya Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti (IFEAC) 1993-yilda tashkil etilgan bo'lib, Fransiya Tashqi ishlar vazirligining ma'muriy vakolati ostida ishlaydi va CNRS idorasini va tadqiqot bo'limi maqomiga ega. IFEACning asosiy vazifasi mintaqada arxeologiya va ijtimoiy va gumanitar sohaning barcha fan yo'nalishlari (tarix, sotsiologiya, etnologiya, antropologiya, iqtisod, geografiya va h.k.) bo'yicha ishlayotgan Fransiya va Markaziy Osiyodan kelgan tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.